

SAHNA SAN'ATIDA BO'LAJAK AKTYORLARNING SO'Z USTIDA ISHLASHI VA BADIY DID, ETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Xasanboyeva Roziyabonu Abdusalom qizi

O'zDSMIFMF “Dramatik teatr va kino aktyorligi” 2- bosqich talabasi

roziyahasanboyeva6@gmail.com

Ilmiy rahbar: Anvarov Otabek Rustambek o'g'li

O'zDSMIFMF “Teatr san'ati” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kundagi jamiyatimizda sahna madaniyati, notiqlik, sahnadagi hatti-harakatlar odobini nechog'lik zarur va muhimligi, bugungi kun teatr san'atida aktyorlarning nutqi, o'zbek san'atkorlarining nutq madaniyati, yosh aktyorlarda dramaturgga, pessa tiliga ham alohida hurmat hissini tarbiyalash, avvalo, bo'lajak aktyorlarimizning badiiy did va axloqiy madaniyatnini professor pedagoglarimiz tomonidan yanada sayqallashtirib rivojlantirib borishi haqida hamda notiqlik san'ati va sahna nutqi teatr san'atining ajralmas qismi ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'z: San'at, madaniyat, sahna harakati, notiqlik, nutq, nutqiy sermazmunlik, teatr, kino, texnika, partnyor, pedagog, aktyor, badiiy did, madaniyat, etika, ijod, san'at, talaba, pedagog, axloq, tarbiya, soha, spektakl, teatr, jamoa, ijodiy jarayon, asar, xatti-harakat.

“San'at sening oshig'ing emas sen san'atning oshig'i bo'l”

K.S.Stanislavskiy

San'atni azaldan o'zimizning oddiy xalq suyganligini, xalqimizni san'atsiz tasavvur qilib bo'lmasligini albatta hammamiz juda yaxshi bilamiz. Misol uchun aytaylik, xohlagan vaziyatda kimdir qo'shiq hirgoya qilishi hattoki, yig'ilish majlislarida ham ruhlantirish uchun kinodan parcha yoki bo'lmasa biror bir ibratli maqol, matal aytilishi. Albatta, olis hududlarda isteqlomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida te'atr, sirk va boshqa turdagi ommaviy madaniy va konsert tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab quvvatlash, ta'lim muassalarini milliy cholg'ular musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv- metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida qator tadbirlari yo'lga qo'yilmoqda.

Xususan, 1998-yil 26-martdagi “O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida”gi farmoni, 2012-yil 4-iyundagi “O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida” gi PQ-1771-son qarori, 2017-yil 15-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-2778-son qarori san'at va madaniyat sohasiga bo'lgan yuksak e'tiborning namunasidir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida "Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug'orilgan asarlar yaratish - barcha san'at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon

bo'lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste'dodli dramaturg va rejissorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi.” Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.”, deb ta'kidlagan edi.

Bundan ko'rinib turibdiki sahna san'atining beqiyos ta'sir kuchiga ega ekanligini, bu sohani yuksaltirish uchun, avvalo, yoshlarga e'tibor qaratish, yosh iste'dodli aktyorlarni tarbiyalab, malakali kadrlar tayyorlash kerakligini kunning dolzarb va muhim vazifalardan biri ekanligini bilib olish ham mumkin. Chunki san'atkor tarix va kelajak o'rtasidagi o'ziga xos ko'priq, ajdodlar va avlodlar me'rosini, an'analarini bir biriga bog'lovchi vositadir. San'atning yana bir asosiy xususiyati-bu uning eng muhim tarbiya vositasi ekanligi bilan birgalikda belgilanadi.

Har bir kishining o'zaro yuksak madaniy nutqiy aloqada bo'lishi insonning ruhiy dunyosini boyitish bilan uning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, inson tabiatini chuquroq bilish, tafakkurning sayqallanishini yanada takkomilashtirish va ayniqsa, mustaqillik g'oyalarini taraqqiyotimizning har qanday yo'nalishlarida mustahkamlash orqali bugungi barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq ulkan masala va muammolarni hal qilishda kasb etadi. Etik madaniyat talablari har bir davr, zamon yoki muhit ta'sirida o'zgarib boradi. Ammo, uning asosida yotgan g'oya, oliy, ezgu, maqsad- hislat badiiy did, etik madaniyat o'zgarmaydi. Balki, yanada mustahkamlanib, rivojlanib boraveradi. Aktyorlar teatr dargohiga qadam bosar ekan, o'zlarida uchraydigan illatlarni murg'aklik holidayoq, bartaraf etishga qodir bo'lib, san'atning murakkab bu sohasiga o'z hayotini baxshlab, o'zi bilan ta'lim tarbiyani, yaxshi xislat-hayollarni olib kirishi lozimki, bu uning o'zini tutishi, kiyinishidan tortib, hatto soch turmagigacha yuqori etik did va madaniyatida aks ettirib tursin. Aksincha, asl ijod jarayoni, ilhomiga putur yetkazuvchi, insoning yuksak, pokiza tabiatiga qarshi yomonliklar, mayda gap-so'z, g'iybat, arziyas orzu-tashvishlarni esa teatr tashqarisida qoldirishi kerak, teatrga iflos oyoq kiyim bilan kirish yaramaydi, teatrga oyog'ingizni tozalab kiring, teatrga zinhor tufura ko'rmang. Aktyor va san'at sohasi vakillarining etikasi aktyorlik va teatr san'atida eng muhim birlamchi vositadir. Shuning uchun ham teatr san'atida aktyor etikasi ma'lum qoidalardan iboratdir.har qanday aktyor teatr dargohida faoliyat yuritir ekan teatr jamoasi, tomoshabin, pessa mualiffi, partnyori va albatta o'zi oldidagi eng muhim bo'lgan ma'sulyatini chuqur anglagan holda zimmasidagi sharaflil vazifani his eta bilishi lozim.

Nutq - tarbiyachining qo'lidagi juda muhim va ayni paytda, g'oyat nozik vosita bo'lib, har bir kishiga o'zining chinakam bunyodkor va haqiqatan ham yaratuvchanligini his qilishga yordam beradi. Mana shuning uchun ham madaniyat va san'at oliygohining bugungi bitiruvchilari faqatgina badiiy so'z ijrochisi, ijodkor va tashkilotchilargina emas, balki shu bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz va adabiyotimizning og'zaki targ'ibotchilari deb e'tirof etsak ham bo'ladi. Ayniqsa, Mustaqillik sharofati tufayli adabiyotimizning eng go'zal namunalari dunyo xalqlari tamadduniga xizmat qilib kelayotgan bugungi kunda nutqiy madaniyatni yanada yuksaltirish-bu davr talabidir.

San'at, shu jumladan, bayramlar insoniyatni go'zalikka chorlovchi, ezgu an'analarni birlashtiruvchi ma'naviy vosita hisoblanadi. Har qanday insoni qalbida san'atga bo'lgan muhabbat bo'lar ekan, undan xech qachon yomonlik chiqmaydi. Albatta biz yuqorida aytib o'tganimizday hayotni san'atsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonda ilm shakllanib borarkan, shu bilan birga san'at ham shakllanib boradi. Aytaylik, biron bir kishi kitob o'qiganida asarda bo'layotkan voqealar uning ko'z o'ngida gavdalanadi.

"Ilm bilan san'at bir-biri bilan yurak va o'pka kabi uzviy bog'langanki, agar ulardan biri buzilgan bo'lsa, ikkinchis ham ishlamaydi." deb yozgan edi L.N.Tolstoy. K.S.Stanislavskiy tizimining sahna nutqini o'qitish metodikasi ham, buyuk yozuvchi obrazli qilib aytganidek, ilm bilan san'atning o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liqligiga asoslanadi.

Ming afsuski so'ngi yillarda kino, teatr va ijtimoiy tarmoqlarda ba'zi san'at vakillari turli xil she'valarda, ko'cha tilida nutq bayon etishlari, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishi, urg'u ohangni muhim so'zga emas va qarangki o'zlari istagan laxchalarda nutq so'zlashlari ikkinchi darajali bo'lgan so'zga qo'yish, pauzalar noto'g'ri ekanligi, so'zlarni oxiri yutib yuborilishi, talaffuzni tushunarsizligi kabi illat va nuqsonlar hozirgi kunimizning eng dolzarb muammosiga aylangani barchamizga ma'lum. Ko'plab aktyorlar o'quv dargohlarida sahna nutqi fanini yaxshi o'zlashtirmaganli sababidan, san'at sohaning muammoli jihatiga aylanib qolmoqda. San'at va Madaniyat soha vakillari xalq uchun ko'zgudir. Shuning uchun ham har bir tarbiyalanayotgan yosh aktyor va ijodkor nutqga e'tibor qaratishi lozim.

Yana bir eng nozik masala- shaxsiy nutq texnikasiga yetarlicha baho bera olmaslikdir. Ko'p hollarda aktyor sahnada to'g'ri organik harakat qila olsa, qolganlari o'z-o'zidan kelaveradi deb hisoblanadi. Partnyorga ta'sir ko'rsatishning zarurligi uni so'zlarni yaxshiroq talaffuz etishga majbur qilishi, faollik, aniqlik va maqsadga muvofiq xatti-xarakat, partnyorga kerak bo'lgan ohang, uning tovushiga muvofiqlashgan bo'yoqni beradi.

Aktyorlar ijodiy jarayoning dastlabki bosqichlarida osonlik bilan topilgan shuhrat uning shaxsiyati va axloqiy madaniyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli matbuot vositalarida, masalan, gazeta muqovasida o'z rasmini ko'rgan yosh aktyor ruhiyatida yomon ma'nodagi o'ziga haddan ortiq ishonch, o'z-o'zidan qoniqish, shuhratparaslik hislari uyg'onadi. Natijada endigina tanilayotgan aktyor o'z ustida ishlamay qo'yadi, iste'dodli, mahoratiga putur yetadi. Gazetadagi birgina surat oxir-oqibat ana shu aktyorning bir necha yillik (balki umrbod) ijodiy tanazzuliga sabab bo'ladi. shuni nazarda tutgan holda yangi qabul qilingan har bir yangi kurs talabalarining to uchinchi bosqichga qadar har qanday axborot vositalari, kino, kliplarda suraga tushishlarini qat'iyani taqiqlash kerak. Ushbu taqiq yana bir sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatning oldini oladi.

Sahna nutqi madaniyati masalasi-zamonaviy aktyorlik san'atining o'ta muhim muammolaridan biridir. Ko'pgina mutaxassislar aktyorlik san'atida nutq bugungi kunda eng kuchsiz a'zo, degan xulosaga keladilar. Bosh bo'g'inga, ikkinchi darajali so'zlarga urg'u bermaslik, matni bo'lib aytish, oxirgi so'zlarni yutib yuborish, talaffuzni tushunib bo'lmasligi kabi kamchiliklar teatrdan oddiy holatga aylandi. Tomoshabin aktyorning nima deyayotgani haqida qo'shnisidan so'rashga majbur. Bunday nutqni aktyor o'yinining yangi manerasi deya qabul qilib, aktyorning hayotga ijodiy maksimal yaqinlashuvi deb qaramoqdalar. Nutq madaniyatini yaxshi egallamagan aktyorlarga sahnada realizm yoki norealizmining talablarini

oqlovchi sifatida qarash mutlaqo noto‘g‘ri. Nutq madaniyatiga yetarlicha baho bera olmaslik, metotonlilik spektakllardagi so‘zlashuv partiturasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jarangdor, musiqali nutq bugungi kunda yuzakilik, soxtalashtirilgan ohangga o‘z o‘rnini bo‘shatib bermoqda. Ko‘pchilik aktyor, rejissorlar bugun so‘z va nutq ustida yetarlicha ishlamay qo‘ydilar. Ayrim so‘z ijrochilari, o‘z ovozlari ustida muntazam ishlab bormasliklari tufayli ifodali vositaning sehrli imkoniyatlaridan mahrum bo‘lib qoladilar. Bora-bora ovoz tembirining (ovozning o‘ziga xos sifati) kam ifodaliligi, ovozning xirildoqligi, sof jarangdorligining yo‘qolishi kabi salbiy hodisalar ro‘y bera boshlaydi. Bunday nuqsonlar oldini olishning birdan-bir va to‘g‘ri yo‘li ovoz ustida muntazam ish olib borishdir.

Sahnada so‘z bilan ta‘sir etmoq, xatti-harakat qilmoq uchun jarangdor, yaxshi sozlangan ovozga ega bo‘lish talab etiladi. Agar aktyor yuksak iste‘dod sohibi bo‘lib, ovozi zaif bo‘lsa tomosha zalida yaxshi eshitilmasa, u holda uni to‘liq mahoratga ega aktyor deya ayto olmaymiz. Shu bilan birga, chuqur ma‘noga ega fikr va go‘zal hissiyotlarini sahnada xirillagan, bo‘g‘iq ovoz orqali ifoda etilishi ham tinglovchilarga erish tuyulishi mumkin. So‘z san‘ati ijodkorlarini yetishtirishning hamma bosqichlarida so‘z san‘ati ustida, ya‘ni yozma nutqning, badiiy matnning estetik ta‘sirchan talqini ustida ishlashdagi jarayoni uzluksiz va tadrijiy mukammallashib borish tamoyilida davom ettiradi. Oliy ta‘lim dargohiga endigina qadam qo‘ygan talabani imkoniyatlarini sinab ko‘rish maqsadida gapirtirib ko‘rish, o‘qitib ko‘rish, ijro ettirib ko‘rish bosqichlaridan boshlab, har bir talabaga xos fazilatlarini rag‘batlantirib, nuqsonlar bartaraf etib boriladi. Texnik mashqlar boshlanishi bilan talaba o‘zi bilgan narsalarni emas, balki ustod-pedagog yo‘llanmalari doirasidagi matnlar-maqollar, tez aytilishlar, she‘riy lavhalar, hikmatli so‘zlar va hadislar bosqichiga o‘tish bilan ma‘suliyat oshib boradi va ana shu bosqichning o‘zidanoq professional tarbiya jarayoni ham boshlanadi. Undan so‘ng talaba o‘zi bilgan narsalarni emas, balki bilmagan, lekin bilishi zarur bo‘lgan haqiqatlarni, o‘zi uchun yangilik bo‘lgan professional qonun-qoidalarining dastlabki elementlarini o‘zlashtirishga majbur bo‘lib qoladi. Shuning uchun so‘z ustida ishlash jarayoni o‘quv dasturining birinchi bosqichidan oxirgi cho‘qqisigacha uzluksiz davom ettirish kerak bo‘ladi.

So‘z talqini jarayoni ham mantiq taqozosi bilan oddiydan murakkabga, soddadan mukammallikka, milliylikdan umumjahoniylikka tomon yo‘nalishlarda bosqichma bosqich o‘tib boradi. Jonli so‘z san‘atida, boshqa sohalardagi mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni zarracha kamsitmagan holatda, umumjahoniy ma‘naviyat durdonalari bilan tanishtirish, tinglovchilar ommasini faqatgina milliy zamin tajribalari asosida emas, balki butun dunyo olim-u ulamolari, fozil-u fuzalolari qo‘lga kiritgan, muayassar bo‘lgan eng sara badialar, yuksak tafakkur hosilalari bilan birga bevosita tanishtirib borish imkoniyatiga ega bo‘lgan qudratli bir soha hisoblanadi. So‘z ustida ishlash jarayonida esa e‘tibor berish zarur bo‘lgan omillar mantiqiy va metodik ravishda yoritib boriladi. Chunki bu omillardan nechog‘lik o‘rinli va samarali manfaatdor bo‘lish ma‘suliyati har bir pedagogni zimasiga tushishi muhim ro‘l o‘ynaydi. Shu bilan birga, har bir pedagog bunday omillardan to‘la foydalanishi, uni muayyan ma‘noda isloh etish hisobiga o‘zi kashf qilgan samarali lavhalarni ilova qilish va o‘z darsliklariga yanada zavqliroq, mazmunliroq, mantiqiy-estetik ta‘sirchanroq ko‘tarinki ruh berishi zarur bo‘ladi. So‘z san‘ati o‘rganuvchilari uchun dastur tanlanganda butun diqqat e‘tiborni tizimli, muntazam o‘rganish jarayoniga qaratish kerak. Buning uchun qilinadigon ishlarning oddiydan murakkabga,

osondan qiyinga tomon bo‘lgan yo‘nalishi va ana shu yo‘ldagi izchilikka rioya qilinishi zarur. Ijodkorlar so‘z ustida ishlaganda ijro etayotgan asarining ma‘no va mazmuniga uning mohiyatiga alohida e‘tibor qaratishi, ijro qilayotgan asarini o‘zi tushunib va tomoshabinga tushunarli qilib yetkazib berish ijodkordan talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytilish kerakki, sahna etika va estetikasi nafaqat turli badiiy oqshom yoki muhtasham bazm kechalaridagina emas, balki kundalik hayotimizdagi quriladigan suhbatlarimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, sermazmun nutq, so‘zlangan uzoq muddatli so‘zlashuvdan afzaldir. Allomayu-mutafakkirlarimiz aytganlaridek-“Oz so‘zla, soz so‘zla”. Albatta, nutq faqatgina biz ijodkorlar va san‘at sohasi vakillariga zarur bo‘libgina emas balki, har bir ongli kishi uchun ham zarurdir. Sababi, yurtimizdagi yasalgan shevalardan ko‘ra baribir o‘zimizning toza va chiroyli adabiy tilimiz yaxshiroqdir. San‘atkorlar sahnada hammaga namuna bo‘lishi, badiiy barkamol, bo‘lajak ustozlar aktyorda badiiy did va axloqiy madaniyatni tarbiyalash haqida fikr yuritar ekan, avvalo, o‘zlari ana shunday tarbiya egalari bo‘lishlari lozimligi, aktyorlar zimmasidagi ma’sulyatlar qatorida uning o‘zi oldidagi ma’suliyati ham mavjudki, aktyor buni qalban his etishi, o‘zida ma’naviy, ruhiy, ijodiy kayfiyatni tarbiyalashi, rivojlantirishi, asrab-avaylashi kerak bo‘lishi, aktyorlarda badiiy did va axloqiy madaniyatni tarbiyalash masalasi ijodiy va kasbiy mahorat masalasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘zaro bir- birini to‘ldirib turishi, va shu bilan aktyor sahna san‘atini mukammal egallash bilan birgalikda jamoaga va sahnaga hurmat, mehr-muhabbat badiiy did va etik madaniyatni o‘zida o‘stirib takomilastirib borishi har bir teatr san‘atidagi talabalarning va bo‘lajak aktyorlarning hayotiy doimiy qonuni shiori bo‘lib qolishi zarur. Hamda yuksak nutq madaniyati darajasidagi sahna asarlari yaratish uchun kundalik hayotda ham nutq madaniyatiga ega bo‘lishi lozim. Sahnaga nutq madaniyati aktyorlik san‘atining muhim va eng kerakli qurolidir. Sababi san‘at ahli adabiy tilning ilg‘or targ‘ibotchilari hisoblanadilar. Aktyorlarimizning ming mahoratlari zo‘r bo‘lmasin lekin, uning nutqi zaif, xunuk, ovoz jarangdorligi past va eng muhimi adabiy tilda emas balki, har xil laxjalarda so‘z yuritsa uning mahorati bir tiyin bo‘lib qoladi. Shuni aytilish mumkinki, Aktyorning badiiy did axloqiy madaniyati uning mahoratidan ustundir. Aktyorning eng asosiy va eng qudratli quroli - so‘zdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Harakatlar strategiyasi: fan va ta’lim (muammo va yechimlar)” mavzusidagi yosh olimlar va doktorantlarning 5-ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari TO‘PLAMI - Toshkent – 2021
2. K. S. Stanislavskiy - “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” (T. Xo‘jayev tarjimai) Toshkent - “Yangi avlod”- 2017
3. M. Abdullayeva “Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati” “Tafakkur qanoti” nashriyoti Toshkent - 2014
4. M. Abdullayeva. “Sahna mahorat maktabi” “Chashma print” nashriyoti Toshkent – 2011
5. M. Abdullayeva. “Rejissura” “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti Toshkent - 2016

“Молодой исследователь”

Организовано в масштабах Содружества Независимых Государств (СНГ)
международный научно-практический конкурс

6. R. Usmanov “Rejissura” “Fan” Toshkent – 1997
7. J. Mahmud “Aktyorlik mahorati” “Bilim” Toshkent - 2005
8. Sh. Usmonov “Sahna harakati va jangi” “Navro‘z Nashriyoti” Toshkent - 2014
9. Sh. Usmonov “Ritmika - Plastika” - o‘quv qo‘llanma Toshkent – 2020
10. A.Nosirova “Sahna nutqi”, “Tafakkur-Bo‘stoni” nashriyoti Toshkent-2013
11. J.Mamatqosimov “Ommaviy bayramlar Rejissurasida sahna madaniyati”, “Fan va texnologiya” Toshkent-2009y